

SURXONDARYO HUDUDI YHM KO'RSATKICHLARINING STATISTIK O'RGANILISHI

Raimqulov Sherari Urazdavlatovich

Termiz Davlat Pedagogika instituti o'qituvchisi

Axmedova Gulsevara

Farmonova Sevinch

Mamarazoqova Beg'am

Termiz Davlat Pedagogika instituti talabalari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20353080>

Kirish

Yalpi Hududiy Mahsulot (YHM) hudud iqtisodiy faoliyatini ifodalovchi eng asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib, ma'lum bir hududda ishlab chiqarilgan barcha mahsulot va xizmatlarning bozor bahosidagi umumiy qiymatini aks ettiradi. Surxondaryo viloyati O'zbekiston Respublikasining janubiy-sharqiy qismida joylashgan bo'lib, uning iqtisodiyoti ko'proq qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmatlar sohasiga tayangan holda rivojlanmoqda. Ayniqsa, paxtachilik, bog'dorchilik, sabzavotchilik hamda oziq-ovqat sanoati hudud iqtisodiyotida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Mazkur tadqiqotda 2023–2025 yillar davomida YHMning o'zgarish tendensiyalari, tarmoq tarkibi va iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omillar statistik jihatdan tahlil qilinadi.

Adabiyotlar sharhi

Surxondaryo viloyatining iqtisodiy ko'rsatkichlarini statistik usullar asosida o'rganishga bag'ishlangan bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, hududdagi uy-joy qurilishi korxonalarining statistik ko'rsatkichlari Q.T. Ibragimov ilmiy izlanishlarida yoritilgan [1]. Viloyatda qurilish materiallari ishlab chiqarishining rivojlanish yo'nalishlari B.E. To'rayev tomonidan tadqiq qilingan [2]. Surxondaryo viloyatining 2010–2024 yillardagi yalpi hududiy mahsulot ko'rsatkichlari D.I. Ismoilov tadqiqotlarida statistik tahlil etilgan [3]. Shuningdek, Termiz temir yo'l uzelinig iqtisodiy-statistik holati D.R. Shakarova ilmiy ishlarida ko'rib chiqilgan [4].

Yuqoridagi tadqiqotlarda asosan iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari alohida tahlil qilingan bo'lsa, ushbu maqolada viloyat yalpi hududiy mahsulotining umumiy holati, rivojlanish dinamikasi hamda iqtisodiy tarkibi kompleks ravishda o'rganiladi.

Tadqiqot maqsadi va metodologiyasi

Mazkur tadqiqotning bosh maqsadi — Surxondaryo viloyati YHMning o'sish tendensiyalarini aniqlash hamda istiqboldagi rivojlanish jarayonlarini prognoz qilishdan iborat.

Tadqiqotning:

- obykti — viloyat yalpi hududiy mahsuloti ko'rsatkichlari;
- predmeti — YHM tarkibi, iqtisodiy tarmoqlar va tashqi iqtisodiy omillar hisoblanadi.

Tahlil jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- vaqt qatorlari tahlili;
- qiyosiy tahlil usuli;
- regressiya va korrelyatsion tahlil;
- statistik prognozlash metodlari.

Ma'lumotlar manbasi sifatida Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi hamda O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlaridan foydalanildi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, viloyat iqtisodiyoti mamlakat yalpi ichki mahsulotining qariyb 3–4 foiz ulushini tashkil etishiga qaramay, sanoat tarmoqlarini

diversifikatsiya qilish va mavjud resurslardan samarali foydalanish bilan bog‘liq muammolar saqlanib qolmoqda.

YHMning nazariy va metodologik asoslari

Yalpi Hududiy Mahsulot hudud iqtisodiy faoliyatini baholashda muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. YHMni hisoblashda asosan ishlab chiqarish usuli, ya‘ni iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatlar yig‘indisidan foydalaniladi. Bundan tashqari, xarajatlar usuli ham qo‘llaniladi.

YHMni statistik jihatdan baholashda quyidagi asosiy ko‘rsatkichlardan foydalaniladi:

- joriy narxlardagi hajm;
- real o‘shish sur‘ati;
- aholi jon boshiga YHM;
- iqtisodiy tarmoqlar ulushi.

Statistik tadqiqotlarda trend tahlili, dinamik qatorlar tahlili, korrelyatsiya va ekstrapolyatsiya usullaridan foydalanish iqtisodiy jarayonlarni chuqurroq o‘rganish imkonini beradi.

Surxondaryo viloyati iqtisodiyotining asosiy xususiyatlaridan biri — qishloq xo‘jaligi ulushining yuqoriligidir. Hudud iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi qariyb 47–48 foiz ulushga ega bo‘lib, bu viloyatning agrar yo‘nalishda rivojlanganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, iqlim o‘zgarishi va suv resurslari tanqisligi qishloq xo‘jaligi rivojlanish sur‘atlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Viloyatning O‘zbekiston YaIMdagi ulushi o‘rtacha 3,5–4 foizni tashkil etadi. 2024 yilda aholi jon boshiga YHM hajmi 17,88 million so‘mni tashkil qilib, real o‘shish sur‘ati 0,2 foizga teng bo‘ldi.

YHM dinamikasi va statistik ko‘rsatkichlar (2023–2025 yillar)

2023–2025 yillarda Surxondaryo viloyati YHM ko‘rsatkichlari barqaror o‘shish yo‘nalishini namoyon etdi. Joriy narxlardagi YHM hajmi quyidagi ko‘rinishda shakllandi:

2025 yil ko‘rsatkichlari prognoz ma‘lumotlari asosida shakllantirilgan bo‘lib, birinchi yarim yillik natijalariga tayangan holda ishlab chiqilgan.

2024 yilning yanvar–mart oylarida YHM hajmi 7 640 milliard so‘mni tashkil etib, iqtisodiy o‘shish sur‘ati 5,5 foizga yetdi. 2025 yilning yanvar–iyun oylarida esa YHM hajmi 29 516 milliard so‘mga yetib, o‘shish sur‘ati 5,7 foizni tashkil qildi.

Mazkur ko‘rsatkichlar pandemiyadan keyingi iqtisodiy tiklanish jarayonlari davom etayotganini ko‘rsatadi. Yillik o‘shish sur‘ati o‘rtacha 15–20 foiz oralig‘ida shakllangan bo‘lsa-da, inflyatsiya darajasining yuqoriligi sababli real iqtisodiy o‘shish 6–7 foiz atrofida bo‘lishi mumkin.

Viloyat eksport hajmi ham sezilarli ravishda oshdi. Xususan, 2025 yilning birinchi yarim yilligida eksport hajmi 162 foizga ortib, qo‘shimcha 74 million AQSH dollari miqdorida eksport amalga oshirildi. Eksport tarkibida asosan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ustunlik qilmoqda.

Korrelyatsion tahlil natijalari YHM o‘shishi bilan qurilish va xizmat ko‘rsatish sohasi o‘rtasida kuchli musbat bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi ($k = 0,82$). Bu esa hudud iqtisodiyotida xizmatlar va qurilish tarmoqlari iqtisodiy o‘shishning muhim drayverlaridan biri ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari Surxondaryo viloyati yalpi hududiy mahsulotining 2023–2025 yillar davomida izchil o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lganligini ko‘rsatdi. Iqtisodiy rivojlanishda, ayniqsa, qishloq xo‘jaligi hamda xizmat ko‘rsatish tarmoqlari muhim rol o‘ynadi. Statistik tahlillar viloyatda sanoat, qurilish va xizmat ko‘rsatish sohalarini yanada rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini 18–20 foizgacha oshirish imkoniyati mavjudligini ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiya qilish, mavjud resurslardan samarali foydalanish va

investitsion faollikni kuchaytirish hudud iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda muhim omil bo’lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Ibragimov. Q. T. ECONOMIC-STATISTICAL ANALYSIS OF ACTIVE CONSTRUCTION ENTERPRISES IN SURKHANDARYA REGION Journal of Management Value & Ethics (A quarterly Publication of GMA) April special issue. 23 Vol. 13 No.02 SJIF 8.001&GIF 0.626 ISSN-2249-9512 Journal of Management Value & Ethics.
2. B.E. Turayev. Surxondaryo viloyati yalpi hududiy mahsuloti tarkibida qurilish ishlari ulushining korrelyatsion-regression tahlili. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2021-yil - 215-224-betlar.
3. Ismoilov D.I. Surxondaryo viloyatida 2010-2024 yillardagi yalpi hududiy mahsulotining statistik tahlili. “Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning dolzarb masalalari|| mavzusida” Respublika ilmiy-amaliy anjumani.2025.-372-377
[15 16 Oktabr Mintaqani ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning dolzarb \(2\).pdf](#)
4. D. R. Shakarova Correlation-regression analysis of the main use indicators of railway transport Baltic Journal of Law & Politics, A Journal of Vytautas Magnus University, Volume 16, Number 03(2023):3657-3662, doi: 10.2478/bjlp-2023-00000279. 6-bet.